

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA “TARBIYA” FANI VA DARS DAN TASHQARI  
MASHG‘ULOTLARIDA MILLIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI  
SINGDIRISH**

Dildora Nomozova

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda “Tarbiya” fani va darsdan tashqari mashg‘ulotlarning o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida milliy qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga singdirishning samarali metodlari va ularning dars jarayonidan tashqaridagi davomiyligi o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya va interfaol mashg‘ulotlar o‘quvchilarning axloqiy tushunchalarini amaliyotga tatbiq etish darajasini oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya fani, milliy qadriyatlar, boshlang‘ich ta‘lim, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, axloqiy tarbiya, pedagogik integratsiya.

**Аннотация**

В данной статье анализируется роль предмета «Воспитание» (Tarbiya) и внеклассных занятий в формировании духовно-нравственного облика учащихся начальных классов. В ходе исследования были изучены эффективные методы внедрения национальных ценностей в сознание учащихся и преемственность этого процесса во внеучебной деятельности. Результаты показывают, что междисциплинарная интеграция и интерактивные занятия повышают уровень практического применения нравственных понятий в жизни учащихся.

**Ключевые слова:** предмет «Воспитание», национальные ценности, начальное образование, внеклассные занятия, нравственное воспитание, педагогическая интеграция.

**Kirish.** Globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash pedagogikaning eng ustuvor vazifasiga aylandi. Boshlang‘ich sinf davri bolada ijtimoiy xulq-atvor normalari va axloqiy immunitet shakllanadigan eng muhim bosqichdir. O‘zbekiston ta‘lim tizimida joriy etilgan “Tarbiya” fani nafaqat nazariy bilim berish, balki o‘quvchilarda “Odob-axloq”, “Vatanparvarlik” va “Tadbirkorlik” kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Biroq, faqat dars soatlari bilan cheklanish kutilgan samarani bermasligi mumkin. Shu sababli, darsda olingan

bilimlarni darsdan tashqari mashg‘ulotlar (to‘garaklar, bayram tadbirlari, sayohatlar) bilan bog‘lash dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat, elatlar istiqomat qilayotgan bo‘lsa ularning o‘zaro munosabatlaridagi hamjihatlik, birodarlik, bir-biriga nisbatan kuchli ishonch - bularninbari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma‘naviy tarbiyaning natijasi hisoblanadi. 2 ma‘naviy tarbiya deganda ko‘proq suyanilishi lozim bo‘lgan holatlardan biri uning sog‘lom tafakkur bilan uyg‘un holda tushunilishidir. Sog‘lom tafakkur inson ma‘naviyatining eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda hozirgi kunda olib borilayotgan ma‘naviy tarbiyaning tub negizini tashkil etadigan omillardan yana biri unda ilg‘or demokratik qoidalarga jiddiy e‘tibor qaratilganligi bilan izohlanadi.

Jumladan, mahalladagi “**Yoshlar ishlari agentligi**” tomonidan birlashtirilgan yoshlar yetakchisi va maktab direktori o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, umumta‘lim maktablarda dars mashg‘ulotlari tugagandan so‘ng kutubxona, sport zal, kompyuter xonalari va tadbirlar zali doimiy ishlashi ta‘minlanib, maktablar mahalla uchun “Ma‘naviyat maskani”ga aylantirildi. <sup>8</sup> Farzand tarbiyasi borasida ota-onalar ayniqsa otalar mas‘uliyati oshirish maqsadida har chorak yakuni bilan “Otlar yig‘ilishi”ni o‘tkazish tizimi joriy qilingan. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tashkil etiladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning samaradorligi 7 ta indikatorlar yordamida baholanib, har 6 oyda reyting ishlab chiqiladi va “muammoli maktab”, “o‘rta maktab”, “yaxshi maktab” va “namunali maktab” toifalarga ajratildi. Tarbiya va ma‘naviyat tushunchalarini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Ular dialektik aloqada, mantiqan bir maqsadning ikki yetakchi kuchi. Tom ma‘nodagi insoniy fazilatlariga tarbiya jarayonisiz erishib bo‘lmagani kabi, ma‘naviy omillarsiz ham uni tasavvur etish qiyin. Quyida tarbiya metodlari xususida qisqacha ma‘lumot berib o‘tamiz.

“Tarbiya” fani va darsdan tashqari mashg‘ulotlarida milliy-axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

**Tahliliy-qiyosiy metod:** Mavjud "Tarbiya" fani darsliklari va darsdan tashqari faoliyat dasturlari tahlil qilindi.

**Pedagogik kuzatuv:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars va tanaffus paytidagi xulq-atvori kuzatildi.

**Suhbat va so‘rovnoma:** O‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida milliy qadriyatlarni singdirishda qaysi usullar samarali ekanligi bo‘yicha so‘rov o‘tkazildi.

**Modellashtirish:** Milliy qadriyatlarni singdirishning "Dars + To'garak + Oila" modeli ishlab chiqildi.

Shu o'rinda tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish judayam muhim sanaladi. Vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularni individual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligini rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

O'tkazilgan o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, milliy-axloqiy qadriyatlarni singdirishda faqat nazariy bilimlar yetarli emas. Natijalar quyidagi jadval ko'rinishida umumlashtirildi:

Mashg'ulot turi	Qo'llaniladigan usullar	Kutilgan natija
"Tarbiya" darslari	Hikoya qilish, videoroliklar, interfaol o'yinlar	Milliy qadriyatlar haqida nazariy tushuncha
Darsdan tashqari mashg'ulotlar	Muzeylarga sayohat, "Milliy liboslar" ko'rgazmasi	Amaliy ko'nikma va hissiy bog'liqlik
Oila bilan hamkorlik	"Mening shajaramb" loyihasi	Avlodlar davomiyligini his qilish

“Tarbiya” fani o'quvchiga yo'l ko'rsatuvchi mayoq bo'lsa, darsdan tashqari mashg'ulotlar ushbu yo'ldagi amaliy tajribadir. Milliy qadriyatlarni (kattaga hurmat, kichikka izzat, vatanparvarlik, halollik) singdirishda quyidagi omillar muhim:

1. **Integratsiya:** Darsdagi nazariya va hayotiy misollar uzviyligi.

2. **O‘qituvchi shaxsi:** Pedagogning o‘zi milliy-axloqiy namunaga ega bo‘lishi.
3. **Muhit:** Maktabdagi ma’naviy muhit va milliy bezaklarning mavjudligi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan (maqollar, ertaklar) keng foydalanish bolaning til boyligini oshirish bilan birga, uning qalbida milliy g‘ururni uyg‘otadi.

**Xulosa.** Boshlang‘ich ta’limda milliy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u faqatgina dars soatlari bilan cheklanib qolmasligi kerak. “Tarbiya” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va milliy an’analar asosida tashkil etilgan darsdan tashqari tadbirlar bilan boyitish barkamol avlodni voyaga yetkazishning eng samarali yo‘lidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". - T: "O‘zbekiston", 2021.
2. "Tarbiya" fani konsepsiyasi va o‘quv dasturlari.
3. Azizxo‘jayeva N.N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat". - T.: 2006.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Qarshi.: Nasaf, 2021. – 80b.
5. Eshpo‘latova J. E. MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH //Inter education & global study. – 2024. – №. 3 (1). – C. 139-146.
6. DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY IN STUDENTS ON THE BASIS OF A COMPETENT APPROACH. (2025). EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 1(2), 164-169.
7. O. V. Usmanova Y. V. Risyukova Tarbiya darsligi 4 - sinf T. 2023y